

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "DO'STLIK"NI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI LINGVODIDAKTIK MASALALARI

Farg'ona davlat universiteti

Ingliz tili o'qitish metodikasi

kafedrası professor o'qituvchisi

Pakirdinova Sharofatxon Abdumutallibjonovna

Farg'ona davlat universiteti

Lingvistika: ingliz tili yo'nalishi

Ikkinchi kurs magistranti

Gofurova Mashxuraxon Odiljon kizi

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunoslikda dolzarb mavzuga aylanib borayotgan "lingvodidaktika" terminini batafsil yoritib berib, "do'stlik" tushunchasiga oid frazeologik birikmalardan namunalar keltiradi va ularni lingvodidaktik jihatdan tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: lingvodidaktika, frazeologik birikmalar, konsept.

Abstract. This article explains in detail the term "linguodidactics", which is becoming a topical topic in linguistics, gives examples of phraseological combinations related to the concept of "friendship" and analyzes them from a linguodidactic point of view.

Key words: linguodidactics, phraseological combinations, concept.

Абстрактный. В данной статье подробно объясняется термин «лингводидактика», который становится актуальной темой в языкознании, приводятся примеры фразеологических сочетаний, связанных с понятием «дружба», и проводится их анализ с лингводидактической точки зрения.

Ключевые слова: лингводидактика, фразеологические сочетания, концепт.

Lingvodidaktika – bu XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan nisbatan kenja fan hisoblanadi. Lingvodidaktika, integral fan bo‘lib, ta’limni o‘rganish sharoitida tilni o‘zlashtirish mexanizmlarini va ushbu mexanizmlarni boshqarish xususiyatlarini tavsiflash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, lingvodidaktika bir nechta mustaqil va bir vaqtning o‘zida bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ilmiy fanlarning o‘zaro ta’sirini ta’minlaydi: metodologiya, lingvistika, pedagogika, psixologiya, psixolingvistika; keltirilgan ilmiy fanlar bilan birgalikda chet tillarini o‘qitishning lingvistik bazasini aks ettiradi.

Lingvodidaktika – bu til o‘qitish nazariyasi, ya’ni o‘qitish metodikasining nazariy qismi bo‘lib, tilshunoslik va metodologiyaning integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan fandır.

Do‘stlik konseptiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ingliz va o‘zbek tillarida ushbu konseptning ifodalanishi turlichadir. Ingliz madaniyatidan farqli o‘laroq, O‘zbek millatida ushbu tushuncha ancha muqaddas, holbuki inglizlar do‘stlikni qimmatbaho deb biladilar.

Quyida ular o‘zaro muqoyasa qilinadi:

1. Qiyomatli do‘st – albatta hech bir inson qiyomatgacha umr ko‘rmaydi. Bu yerda ham insonning emas, do‘stlikning umri qiyomatgacha deb tushunilmoqda. Inglizlarda esa “a friend in need is a friend indeed” ya’ni muhtojlikdagi do‘st haqiqiy do‘st deb qaraladi.

Menga goh uchradi hiyonatli do‘st,

Boringga ming shukur qiyomatli do‘st (Qo‘shiqdan)

2. Make friends – ushbu fraza aslida tarjima qilinganida do‘st yasab olmoq degani, biroq do‘stni yasab bo‘lmaydi. Ushbu rishta shakllantiriladi yoki quriladi, misol uchun o‘zbek tilida “do‘stlik rishtasini qurmoq”, “do‘stlik rishtasini bog‘lamoq” kabi frazalar bunga mos keladi.

I made a lot of friends at school.

3. Friends in high places – ushbu iboraning ma’nosi o‘zbek tilidagidek “kazo-kazo og‘aynilari bo‘lish” degan ma’noni anglatadi.

Jim is very rude to other workers just because he has some friends in high places.

4. Yoki frazeologik birliklarni yana bir turi bo'lmish maqollarda akslanadigan bo'lsa:

Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.

Ingliz tilida esa *"A good friend is like a four-leaf clover, hard to find, lucky to have.*

Barcha xalqlarda ham to'rt bargli beda o'simligi baxt-omad ramzi hisoblanadi. Ingliz xalqida esa yaxshi do'st ham shunday baxtga qiyoslanmoqda. Yuqorida aytganimizdek, ingliz millatida yaxshi do'stga ega bo'lish qimmatli sanaladi.

Bunday birikmalar tilimizda juda ko'plab topiladi, ularning boshqa tillar bilan chog'ishtirma tahlili esa qiziqarli. Chunki har bir tilda o'xshash va farqli jihatlari bor va bu muqoyasalar millatning madaniyatidan tashqari, dunyoqarashiga ham chambarchas bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ворожцова И.Б. Основы лингводидактики. Учеб.пособие. – Ижевск, Удмуртский государственный университет, 2007. – 113 с.
2. O.R.Roziqov, M.H.Mahmudov; B.R. Adizov, A.R.Hamroyev. Ona tili didaktikasi. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. 382 b.
3. *"Definition for friend". Oxford Dictionaries. Oxford Dictionary Press. Archived from the original on January 26, 2011. Retrieved 25 May 2012.*
4. ^ Howes, Carollee (1983). *"Patterns of Friendship". Child Development. 54 (4): 1041–1053. doi:10.2307/1129908. ISSN 0009-3920. JSTOR 1129908.*
5. Ismoilova, G. (2021). FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KLASSIFIKATSIYASI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(2).